



2018 yil yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1249,9 mlrd.so'mni**, o'sish **6,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **107,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **25,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **33,2 %**

2018 yilning yanvar-aprel oylariida viloyat korxonalari tomonidan 1249,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoati korxonalarininigi ulushiga to'g'ri keladi (54,8 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 43,8 foiz).

2018 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2017 yil



2018 yil



- Tog` kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elekt gaz bug` bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash
- Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizima chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 685,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 54,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 547,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 43,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmokda: suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 30,8 % ga va teri mahsulotlar ishlab chiqarish 65,1 % ga oshganligi kuzatildi.




***Yanvar-aprel oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar-apreliga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	3,6	4,7	131,5
Paxta tolasi, ming tonna	29,5	27,1	91,8
Aroq – mig litr 100 % spirt	402,2	370,1	92,0
Elektr energiyasi, mlrd kvt/s	6,3	5,7	90,5
Paxta urug'l, ming tonna	47,5	43,0	90,5
Kalava ip, tonna	1606	1492	92,9
Sellyuloza, ming kg 90%	664,3	198,8	29,9
Un, ming tonna	11,7	12,0	102,6
Kunjara, ming tonna	16,4	21,3	129,9

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 322,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 7,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 25,8 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida ooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 54,7 % dan 2018 yilning yanvar-aprel oyida 59,1 % ga oshishi kuzatilmogda.


Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 518,7 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,5 % ulushini), Sirdaryo tumani 213,0 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,0 % ulushini), Guliston shahri 128,0 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 10,2 % ulushini), Boyovut 78,4 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,3 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

*2018 yilning yanvar-aprel oyida hududlarning
sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur`ati*




Shu bilan birga eng kam ulush Guliston tumani 30,3 mlrd so`m (2,4 %), Mirzaobod tumani 32,0 mlrd so`m (2,6 %) va Xovos tumani 35,2 mlrd so`m (2,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1529,7 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 28040,2 ming so'm, Sirdaryo tumanida 1719,0 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 414,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 33,2 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 105,3 foizni tashkil qilgan.



2018 yil yanvar-aprelida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati

